

**“Parazitologiya va veterinariya ishini tashkil etish” kafedrasining assistenti
(Phd)v.f.n., B.S.Rustamovning “Zooinjeneriya” fakulteti 60811500 –
Zooinjeneriya (qorako’lchilik) ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich 201-guruh
talabalariga “Hayvonlar fiziologiyasi” fanidan “Nafas sistemasi fiziologiyasi”
mavzusidagi ochiq ma’ruza mashg‘ulotiga**

T A Q R I Z

Talabalarga Hayvonlar fiziologiyasi fanidan o‘qiladigan ma’ruza mavzusi ishchi o‘quv dasturiga mos keladi. Mavzu rejasi, tayanch iboralar va asosiy mazmundan iborat. Darsning maqsadi mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda berilgan. Ma’ruza mashg‘ulotining asosiy qismi to‘liq yozilgan bo‘lib, darslikdan hamda o‘quv qo‘llanmadan foydalanilgan.

Ma’ruza mashg‘ulotining taqdimotida “Hayvonlar fiziologiyasi” fanidan “Nafas sistemasi fiziologiyasi” mavzusi batafsil yoritilgan bo‘lib, nafasning mohiyati, bosqichlari va mexanizmi, nafas olish tiplari va tezligi, o‘pkaning ventilyatsiya koeffitsenti, o‘pkada gazlar almashinushi, gazlarning qon bilan tashilishi kabi fiziologik jarayonlar haqida tushunchaga ega bo‘lish, o‘pkaning tiriklik sig‘imi hamda qonning kislorod sig‘imini aniqlashni o‘rganish kabi fiziologik jarayonlar yoritilgan va bir necha ma’ruza ishlari bilan mavzu mustahkamlangan. Shular asosida slaydlar orqali mavzu aniq izohlangan, nazorat savollari, nostandard testlar va aqliy hujum savollari bilan boyitilgan.

Ma’ruza mashg‘uloti taqdimotida internet ma’lumotlaridan foydalanilgan bo‘lib, slaydlarda kiritilgan rangli rasmlar mavzuni talabalar tomonidan chuqurroq o‘zlashtirilishiga yordam beradi.

Assistenti (Phd) v.f.n., B.S.Rustamovning “Hayvonlar fiziologiyasi” fanidan “Nafas sistemasi fiziologiyasi” mavzusidagi ochiq ma’ruza mashg‘uloti matni va slaydlari hozirgi zamon innovatsion ta’lim texnologiyalari talablariga javob beradi deb o‘ylayman, hamda uni o‘quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya qilaman.

“Veterinariya jarrohligi va akusherlik”

klafedrasi v.f.d., professor

B.M.Eshbo‘riyev

**“Parazitologiya va veterinariya ishini tashkil etish” kafedrasining assistenti
(Phd) v.f.n., B.S.Rustamovning “Zooinjeneriya” fakulteti 60811500 –
Zooinjeneriya (qorako’lchilik) ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich 201-guruh
talabalariga “Hayvonlar fiziologiyasi” fanidan “Nafas sistemasi fiziologiyasi”
mavzusidagi ochiq ma’ruza mashg‘ulotiga**

T A Q R I Z

O‘tiladigan ma’ruza mashg‘uloti mavzusi fan dasturi va ishchi o‘quv dasturiga to‘lig‘icha mos keladi. Ma’ruza mashg‘ulotining matnida yangi pedagogik texnologoyalardan foydalanilgan holda uslubiy tomondan to‘g‘ri taqdimot qilingan. Dastlab ma’ruza mashg‘ulotning maqsadi va vazifalari, ma’ruza mashg‘ulotini o‘qitishning pedagogik texnologiyasi berilgan bo‘lib, unda pedagogik faoliyat va o‘quv faoliyat natijalari ko‘rsatilgan. Ma’ruza mashg‘ulotining texnologik xaritasida esa o‘quv mashg‘ulotining vaqtini ko‘rsatilgan.

Mavzu belgilangan reja asosida ketma-ketligiga rioya qilingan, ko‘rgazmali qurollardan o‘z vaqtida foydalanib, tayanch iboralarga izoh berib, ma’ruza mashg‘ulotda talabalar bilan muloqotda bo‘lib, mavzu yuzasidan fikrlar so‘ralib o‘tilsa, maqsadga erishiladi. Mavzuning oxirida nazorat savollari va nostandard testlardan ham foydalanilgan.

Mavzuning shakli va mazmuni uslubiy to‘g‘ri yozilganligini inobatga olib assistenti (Phd) v.f.n., B.S.Rustamov tomonidan tayyorlangan “Nafas sistemasi fiziologiyasi” mavzusini o‘quv jarayonida joriy qilishni tavsija qilaman.

Sharof Rashidov nomidagi

SamDu qoshidagi Biokimyo instituti

**“Odam va hayvonlar fiziologiyasi va
biokimyosi”**

kafedrasi b.f.n., dotsent

B.M.Bozorov